O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
SURXONDARYO VILOYATI
BOSHQARMASI

190100, Termiz shahri , Taraqqiyot ko'chasi, 42-uy, Termiz shahri, AT "Turon" bank, Tel/Faks: 71-203-11-18, E-mail: surxonekspertiza@mail.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy

Boshqarma boshlig`i: Nuraliyev Nurbek Baxtiyorovich

2026 - yil 16 - oktabrdagi 299984 - sonli

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

Obyekt nomi: Sherobod tumani Boyqishloq MFY ning O'zbegim ko'chasining 505m, Sumalak ko'chasi 500m, Dexqonobod qishlog'i 1295m qismini ta'mirlash.
Buyurtmachi: SURXONDARYO MINTAQAVIY YO`LLARGA BUYURTMACHI XIZMATI DM
Bosh loyihachi: "TERMIZ UNIVERSAL PROJECT" XUSUSIY KORXONA
Moliyalashtirish manbai: Davlat byudjed mablag'lari
Bosh pudratchi: Tanlov asosida aniqlanadi
Qurilish turi: Joriy ta'mirlash
Murojaat raqami: 148689

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021-yil 13-apreldagi PQ-5072-son qarori va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2024 yil 30 yanvardagi "Tashabbusli byudjet jarayonlarini o'tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to'g'risida"gi KQ-666-IV-sonli Qarori.

1.2. Xalq deputatlari tuman kengashining 2026-yil 12-sentyabrdagi VII-26-91-8-119-K/26 -son qarori.

1.3. Buyurtmachi tomondan 2026 yilda tasdiqlangan loyiha topshirig'i.

1.4. Buyurtmachi tomonidan 2026 yilda tasdiqlangan nuqsonlar qaydnomasi.

1.5. Surxondaryo avtomobil yo'llari bosh boshqarmasi tomonidan 2026 yilda tasdiqlangan, yo'llarni ta'mirlash ishlari loyixa smeta xujjatlarini ishlab chiqishda qo'llanadigan qurilish ishchilarining ish haqi, mashina va mexanizmlarning ekspluatatsiyasi, tovarlarni tashish, qurilish materiallari bo'yicha o'rtacha joriy narxlar.

1.6. Buyurtmachining 2026 yil 22 sentyabrdagi tasdiqlangan narxlar bayoni.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1. Umumiy smeta hujjatlari.

2.2. Nuqsonlar dalolatnomasi, sxematik ko'rinishidagi chizmalari.

2.3. Qurilishni tashkillashtirish loyihasi.

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

Mazkur ishchi loyiha bilan Sherobod tumani Boyqishloq MFY O'zbegim va Sumalak hamda Dexqonobod qishlog’i ichki ko'chalarini ta'mirlash, asfalt qoplamasi yotqizish ishlari ko‘zda tutilgan.

Mahalla hududidagi ta’mirlanadigan yo‘llarning texnik holati vizual ko‘rikdan o‘tqazilishi natijasida, bajariladigan ishlar hajmlari va yo‘llarni joriy ta’mirlash uchun qurilish materiallarini tashish masofalari belgilanib mahallalar ko‘chalari kesimida nuqsonlar dalolatnomasi tuzilgan va buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan.

Yo‘llar eni mavjud parametrlariga mos qabul qilingan.

Mazkur nuqsonlar dalolatnomalariga kiritilgan asosiy ish turlari:

· mavjud yo‘l xolatidan kelib chiqqan xolda qum shag‘al aralashmasidan tekislovchi qatlam bajarish va bitum bilan ishlov berish,

· mayda zarrali zich issiq asfaltbetondan H-5 sm qalinlikda qoplama yotqizish,

· Yo’l belgilarini o’rnatish

NBSh uchun qulay muhit yaratish

Buyurtmachining 02.10.2026-yildagi 01-05/539-sonli xatiga asosan ob’ektni loyiha-smeta hujatlarida avtomobil yo‘lining qatnov qismini ta’mirlash ishlari ko‘zda tutilgan bo‘lganligi sababli NBSh bo‘limi ishlab chiqilmadi.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

-

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

Loyihalanayotgan avtoyo‘l sxematik rejasi va ko‘ndalang kesimi 2026 yilda manfaatdor tashkilotlar bilan kelishilgan.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **1 204 617 220** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati **3 388 862** so'mga kamaytirilib,

1 201 228 358 so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **1 072 525 319** so'm

QQS: **128 703 039** so'm

6.1.Ekspertizadan o‘tkazish jarayonida lokal ekspert xulosalar bo‘yicha aniqlangan kamchiliklar va takliflar asosida loyihachi tomonidan ishchi loyihaga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritildi, ulardan asosiysilari:

· smeta xujjatlarida bitum yo‘lbop suyuq xoldagi GOST va markasi ko‘rsatilgan xolda keltirildi,

· yo‘l qoplamasi uchun zich issiq asfaltobeton qorishmasi qo‘llanildi

· resurs ko‘rsatkichlari narxlari to‘liq tasdiqlangan narxlar bayonnomasiga mos olindi,

· ayrim xarajatlar sarfiga aniqlik kiritilib, qayta keltirilgan xarajatlar chiqarib tashlandi,

Ushbu ishchi loyiha, buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan nuqsonlar qaydnomasiga asosan smeta qismi tekshirildi va “Shaxarsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish respublika markazi” DM Surxondaryo viloyati hududiy boshqarmasi nuqsonlar qaydnomasida keltirilgan ish xajmlarining haqqoniyligi va asosligiga javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydi.

6.2. Loyiha smeta hujjatlari buyurtmachi tashkilotining loyiha bo‘yicha taklif va tavsiyalarisiz ekspertiza ko‘rigiga topshirildi.

6.3. Yakuniy xarajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugagandan so‘ng nazorat o‘lchovi natijalari asosida aniqlanadi.

6.4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17 sentabrdagi 579 sonli qarorining 7 ilovasiga muvofiq:

- yakuniy xarajat buyurtmachi va pudratchi tomonidan qurilish tugaganidan so‘ng nazorot o‘lchovi natijalari asosida pudrat shartnomasi smeta qiymatidan oshmagan xolda aniqlanadi;

ekspertizadan o‘tkazish uchun taqdim etilgan xujjatlarining to‘liqligi, ma’lumotlarning ishonchliligi yuzasidan buyurtmachi va qabul qilingan loyiha yechimlari yuzasidan ishlab chiquvchi javobgar hisoblanadi

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda “Sherobod tumani Boyqishloq MFY ning O'zbegim ko'chasining 505m, Sumalak ko'chasi 500m, Dexqonobod qishlog'i 1295 m qismini ta'mirlash. (Asfaltbeton qoplama yotqizish)” ishchi loyihasi kelgusida ko‘rib chiqish va tasdiqlashga tavsiya qilinadi.

7.2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 6 iyuldagi 261 sonli Qaroriga va 04.01.16-09 sonli ShNQ ko‘ra, qurilishning tavsiya qilinayotgan qiymati pudrat shartnomasi tuzish uchun asos bo‘la olmaydi va erkin tanlov savdosining boshlang‘ich qiymatini yakuniy aniqlash huquqi buyurtmachi zimmasiga yuklatiladi.

Ishtirokchi ekspertlar: Yo‘ldoshev G‘ayrat Qodirovich, Madjitov Ulugbek Abduvosi O‘g‘li, Davlatov Doniyor Dilshod O‘g‘li

Bosh ekspert **DAVLATOV DONIYOR DILSHOD O‘G‘LI**